

**a-pay**

JISMONIY SHAXSLARGA ELEKTRON PULLARNI  
REALIZATSIYA QILISH MAQSADIDA TO'LOV  
XIZMATLARINI KO'RSATISH TO'G'RISIDA

# OMMAVIY OFERTA

Toshkent sh.



Mazkur Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367- va 369-moddalariga muvofiq yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorga (bundan keyin matnda – Agent) qaratilgan, direktor Ko Andrey Nikitovich (bundan keyin matnda – Tizim Operatori) vakili bo'lgan «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» mas'uliyati cheklangan jamiyatning ommaviy Ofertasi hisoblanadi.

«CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MChJ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 09.01.2021 yildagi 21-sonli Litsenziyasi asosida To'lov Tashkiloti maqomiga ega, To'lov tashkilotlari Reyestrda ro'yxatdan o'tgan, «A-Pay» Elektron pullar Tizimining Operatori hisoblanadi.

Mazkur Oferta matni bilan batafsil tanishib chiqing va agar Ofertaning qandaydir bandiga rozi bo'lmagan taqdiringizda «A-Pay» Elektron pullar Tizimi Operatori Sizga mazkur Ofertaning akseptini rad etishingizni taklif qiladi.

Mazkur Shartnoma, u Agent tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab, tuzilgan hisoblanadi.

Ushbu shartnoma maqsadlarida aksept deganda Agent tomonidan «A-Pay» Elektron pullar tizimida ro'yxatdan o'tgan holati va mazkur Oferta shartlariga o'zining roziligini bildirgani tushuniladi.

Tizim operatori ro'yxatdan o'tish vaqtida taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarni tekshirish hamda mazkur Ofertaning akseptini rad etish huquqiga ega.

## 1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. «A-Pay» Elektron pullar tizimi (bundan keyin matnda – Tizim, «A-Pay» Tizimi) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida «A-Pay» tizimi ichida Elektron pullardan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshiradi.
- 1.2. «A-Pay» Tizimi servis sifatida faoliyat olib borib, undan foydalanish <https://www.a-pay.uz> manzilida joylashgan saytdagi Shaxsiy kabinet, «A-Pay» mobil ilovasi orqali yoki «A-Pay» tizimi Agenti Dasturiy ta'minoti yordamida amalga oshiriladi.
- 1.3. «A-Pay» Elektron pullar Tizimi yordamida tovarlar va xizmatlar taqdim etuvchi tijorat va notijorat tashkilotlar foydasiga to'lovlarni, shuningdek, jismoniy shaxslar o'rtasida Elektron pullar jo'natmasini amalga oshirish mumkin.
- 1.4. Mazkur Shartnomada, unga bo'ladigan qo'shimchalar va ilovalarda, shuningdek, ushbu Shartnoma bilan bog'liq har qanday yozishmalarda barcha atamalar va ta'riflar Tizim saytiga va (yoki) mobil ilova orqali kirish mumkin bo'lgan «A-Pay» Elektron pullar tizimi Qoidalariga muvofiq (bundan keyin matnda – Qoidalar, Tizim Qoidalari) talqin qilinadi.
- 1.5. Mazkur Shartnomaning aksepti vaqtida «A-Pay» Elektron pullar tizimi Operatori (bundan keyin matnda – Operator, Tizim Operatori) Emitent Bank – Kapital Bank ATBning «Raqamli» filiali tomonidan taqdim etilgan vakolatlar doirasida Emitent va Elektron pullar tizimi doirasida Elektron pullarni chiqarish, foydalanish va qaytarish bo'yicha Operator o'rtasida tuzilgan Shartnomaga muvofiq harakat qiladi.
- 1.6. Tizim Operatori va Agent o'rtasidagi munosabatlar mazkur Shartnoma, «A-Pay» Tizimi Qoidalari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Tariflari bilan tartibga solinadi.

- 1.7. Mazkur Ofertaning aksept maqsadlarida Agent Operator tomonidan belgilangan shaklda «A-Pay» tizimida ro'yxatdan o'tadi va Oferta shartlari bilan rozi ekanligini ma'lum qiladi. Agentning mazkur Shartnomani barcha shartlari bilan istisnosiz qabul qilishi akseptni anglatadi.
- 1.8. Tizim Operatori tomonidan Oferta aksepti rad etilgan taqdirda Operator bu haqda yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorni aloqaning har qanday vositasi bilan akseptning rad etilish sababini tushuntirmagan holda 5 (besh) ish kunida ma'lum qiladi.
- 1.9. «A-Pay» Elektron pullar tizimi Operatori Agentga to'lov xizmatini taqdim etish doirasida axborot-texnologiya ko'magini ko'rsatadi. Mazkur Shartnomaning shartlari «A-Pay» tizimi Operatori tomonidan belgilangan va Agent tomonidan mazkur Shartnomaning Aktsept yo'li bilan to'laligicha, istisnosiz va cheklovlersiz qabul qilinishi mumkin.
- 1.10. Tizim operatori bir tomonlama tartibda Shartnoma, Tizim Qoidalari, Tariflar, komission rag'batlantirishlar (bundan keyin matnda – Tariflar) shartlariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Agar mazkur Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalari o'zgartirishlar kiritilgan hollarda tizim Operatori Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalarining yangi tahriri kuchga kirguniga qadar o'zgartirilgan tahrir matnini Tizimning sayti va (yoki) mobil ilovasida e'lon qiladi, bunday o'zgarishlarning kuchga kirish muddatini ular e'lon qilingan sanadan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kundan kam bo'lmagan tartibda belgilaydi.

## 2. SHARTNOMA PREDMETI

- 2.1. Mazkur Shartnomaga ko'ra Agent tizim Operatori tomonidan tizim Emitenti – Emitent Kapital Bank ATVning «Raqqamli» filiali vakolatlari doirasida taqdim etilgan Elektron pullarni ishlatish (tarqatish) bo'yicha to'lov xizmatlarini ko'rsatishga jalb etiladi.
- 2.2. Mazkur Shartnomani ijro etish maqsadida Agent Emitentdan Elektron pullarni sotib olish (tarqatish) bo'yicha «A-Pay» Elektron pullar tizimining Mijozlari – jismoniy shaxslarga Elektron pullarni realizatsiya qilish (tarqatish) amaliyotlarini amalga oshirish majburiyatini oladi.
- 2.3. Mazkur Shartnoma doirasidagi Elektron pullar bilan bog'liq amaliyotlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Tizim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlarga muvofiq olib boriladi.
- 2.4. Mazkur Shartnomaga imzo qo'yar ekan Agent «A-Pay» tizimi Qoidalari, Tariflari bilan tanishib chiqqanligini va Qoidalar hamda Tariflarning shartlariga roziligini tasdiqlaydi.
- 2.5. Agent Mijoz – jismoniy shaxs tomonidan alohida toifadagi amaliyotlarni bajarishi doirasida Elektron pulni sotish (tarqatish) ni amalga oshirganida tizim Operatori Agentga o'zining infratuzilmasiga kirishni taqdim etish va Elektron pullar bilan bog'liq amaliyotlar bo'yicha hisob-kitob ishtirokchilari o'rtasidagi axborot hamda texnologik hamkorlikni ta'minlash majburiyatini oladi hamda Tizim Operatori tomonidan to'lanadigan mukofot miqdorini belgilash huquqiga ega hisoblanadi. Mukofotni to'lash miqdori va tartibi «A-Pay» tizimining saytida va (yoki) mobil ilovasida joylashtirilgan Tariflarga muvofiq belgilanadi.
- 2.6. Agent uning tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga to'la mos keladi, va uchinchi shaxslar tomonidan tizim Operatori faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, jumladan, Agent tomonidan Shartnoma doirasida faoliyatni amalga oshirishi holatlari yoki uning natijasi yuzasidan tizim Operatoriga jo'natilgan e'tirozlar mavjudligi hollarida Agent yuzaga kelgan nizoni mustaqil ravishda va o'z hisobidan tartibga solishga majbur hisoblanadi, shuningdek, bunday e'tirozlar paydo bo'lishi natijasida Agent xizmat ko'rsatishni to'xtatgan holda tizim Operatoriga nisbatan qaratilgan har qanday e'tirozni rad etish majburiyatini oladi.

- 2.7. Agent tomonidan Elektron pullarni sotish O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiriladi, Agent o'z zimmasiga bitimlarning qonuniyligini ta'minlash va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining Identifikatsiyalangan-Identifikatsiyalanmagan Mijozlar – jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan amaliyotlarda nazarda tutilgan cheklovlar miqdoriga muvofiqligi qismi talablariga rioya etilishi majburiyatini oladi.
- 2.8. Mazkur Shartnoma Mijoz va uning kontragentlari tomonidan bitimlar, yetkazib berish va (yoki) tovarlarni sotish shartlari (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va boshq.) bo'yicha belgilangan shartlarga dahl qilmaydi va o'zgartirmaydi. Yuqorida qayd etilgan bitimlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi me'yorlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik bunday bitim ishtirokchilariga yuklatiladi.
- 2.9. Tomonlarning har biri uni tegishli shaxs tomonidan taqdim etilishini va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Shartnoma doirasida harakat qilish huquqiga ega ekanligini kafolatlaydi.
- 2.10. Tomonlar Qoidalarning shartlari mazkur Shartnomaning shartlaridan ustun turishini ta'kidlaydilar va mazkur Shartnomaning ayrim qoidalari o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lgan holatlarda Qoida ustunlikka ega hisoblanadi.
- 2.11. Tomonlar tizim Operatori oldindan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirmasligini, shuningdek, bank amaliyotlarining ayrim turlarini hech qanday tarzda bajarmasligini alohida sharhlab o'tadilar va tasdiqlaydilar.
- 2.12. Tizim Operatori va Agent o'rtasida tuzilgan Shartnoma Elektron pullar Emitenti bilan uning tomonidan Tizim doirasida ishga tushirilgan Elektron pullardan foydalanish bo'yicha tuzilgan Shartnomaga tenglashtiriladi.

### 3. SHARTNOMANI (OFERTA AKSEPTINI) TUZISH VAQTI

- 3.1. Mazkur shartnomaning matni ommaviy oferta hisoblanishiga (mazkur shartnomani tuzish taklifi bilan) asoslangan holda Agent «A-Pay» Tizimida Operator tomonidan belgilangan shaklda ro'yxatdan o'tish va Oferta shartlariga roziligini bayon etish ushbu ommaviy ofertaning aksepti (mazkur shartnomani tuzish taklifining qabul qilinishi bilan bog'liq) hisoblanishini tan oladi.
- 3.2. Agent mazkur Shartnomaning akseptini amalga oshirar ekan, Tizim Qoidalari, Tariflari bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi. Agent tizimning Qoidalari, Tariflari bilan <https://www.a-pay.uz> elektron manzili orqali tanishish imkoniga ega bo'ladi.

### 4. AGENTNI TIZIMDA RO'YXATDAN O'TKAZISH TARTIBI

- 4.1. «A-Pay» Tizimi Agenti sifatida faoliyatni amalga oshirish uchun Agent qayd etish tartibidan o'tishi zarur.
- 4.2. Ro'yxatdan o'tish tartibidan so'ng Agentga «A-Pay» tizimi doirasidagi lozim bo'lgan maqom beriladi va tegishli huquq taqdim etiladi.

- 4.3. Agent mustaqil ravishda Mijoz – jismoniy shaxsning naqd pullarini qabul qilishning bir vaqtning o'zida Tizimga kirish vositalari hisoblangan barcha vositalarini qayd etish va hisobga olish majburiyatini oladi hamda Tizim Operatori har qanday vaziyatda ham Agentning mazkur majburiyatlari bo'yicha soliq organlari oldida javobgarlikni olmaydi.
- 4.4. Tizimga kirish uchun parol maxfiy ma'lumot hisoblanadi. Agent tizim Operatoriga shaxsning ma'lumotlarini taqdim etadi va mazkur ma'lumotlar o'zgartirgan taqdirda tizim Operatorini zudlik bilan ogohlantiradi.

## 5. MOLIYAVIY SHARTLAR

- 5.1. Emitent tomonidan O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan Elektron pullar faqat milliy valyuta – so'm nominal qiymatiga ega.
- 5.2. Tizim Operatori haq to'lash hisobiga axborot-texnologik ko'rinishdagi xizmatlarni ko'rsatadi, bunda tizim Operatoriga to'lanadigan haq miqdori Agent tomonidan mustaqil ravishda tanlangan hamda tizim Operatorining saytida joylashtirilgan tarif bo'yicha belgilanadi. Operatorga haq to'lash Elektron pul bilan bog'liq amaliyotlarning barchasidan ushlab qolinadi. Ushlab qolish Operator tomonidan Agent tizimda amaliyotlarni o'tkazishi vaqtida amalga oshiriladi.
- 5.3. Tizim Operatori har oyda Agentga bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va elektron ko'rinishdagi hisob fakturasini keyingi hisobotga qadar oyning 10 (o'ninchi) sanasidan kechikmagan holda taqdim etadi. Agent 10 (o'n) kalendar kuni davomida elektron hisob fakturasini orqali qo'yilgan hujjatlarni imzolash majburiyatini oladi. Agar Agentda e'tirozlar mavjud bo'lgan taqdirda u hujjatlar qo'yilganining 10 (o'n) kalendar kunida tizim Operatoriga uni imzolamasligining asoslangan raddiyasini jo'natishi shart. Aks holda dalolatnoma va hisob fakturasini imzolangan, tizim Operatorining majburiyatlari to'la hajmda bajarilgan hisoblanadi. Tomonlarning ma'lumotlarida nomutanosiblik mavjudligida va Agent tomonidan bajarilgan ish dalolatnomasi va hisob fakturasiga imzo chekishdan rad javobini yuborgan paytidan boshlab 14 o'n (to'rt) kalendar kun ichida bunday tafovutlarni aniqlash hamda bartaraf etish imkoni bo'lmagan taqdirda o'zaro hisob-kitoblarni oshirish uchun tafovutlarning sabablari aniqlanganigacha qadar tizim Operatorining ma'lumotlari asos qilib olinadi. Ular bartaraf etilganidan so'ng Tomonlar o'zaro to'lovlarning qiymatini tuzatadilar va zarurat tug'ilganda hujjatlarga tuzatishlar kiritadi.

## 6. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

### 6.1. Operator quyidagi hollarda majbur hisoblanadi:

- 6.1.1. Agent tegishli tartibda ro'yxatdan o'tganidan so'ng unga elektron hamyon ochish va tizim Qoidalariga muvofiq tizimda faoliyat olib borishini ta'minlash;
- 6.1.2. Agentning so'rovi bo'yicha Operatorida mavjud va tizim faoliyatiga tegishli bo'lgan Agent uchun zarur bo'lgan har qanday me'yoriy-ma'lumot axborotlarini, shuningdek, telefon, faks va elektron pochta orqali maslahat ko'magini taqdim etish;
- 6.1.3. Agent/Agentning vakolatli shaxslarining shaxsiy ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlar va ularni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan, shaxsiy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olishni ta'minlovchi himoya qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rish; shaxsiy ma'lumotlarga oldi olinmagan ruxsatsiz kirishni o'z vaqtida aniqlash;

shaxsiy ma'lumotlarga ruxsat kirishning nojo'ya oqibatlarini imkon qadar kamaytirish, jumladan, ma'lumotlarni to'plash va ularga ishlov berish holatlarida shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilish yuzasidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlar va ularni himoya qilish to'g'risidagi qonunchiligida belgilangan boshqa hollarda tegishli chora-tadbirlar ko'rish;

- 6.1.4. Agentga Elektron hamyonning interfeysiga tegishli elektron xabar yuborish orqali Elektron hamyonni to'ldirish bo'yicha har bir amaliyotning amalga oshirilganligi to'g'risida xabar berish;
- 6.1.5. Agentning yozma so'rovi bo'yicha Elektron pullardan foydalanishni amalga oshirish bilan bog'liq amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat hisobotni (Operator tomonidan mustaqil ravishda tanlangan shakl bo'yicha) elektron shaklda so'rovni qabul kundan boshlab 3 (uch) ish kunida taqdim etish;
- 6.1.6. Tizimda nosozlik ro'y bergan, xakerlik hujumi oqibatida Bank ma'lumotlari bo'yicha Emitentning qoplashi amalga oshiriladigan Reyestrda ma'lumotlarning buzilishiga olib kelgan hollarda barcha zarur choralarini ko'rish (Operatorning ichki tartibiga muvofiq);
- 6.1.7. Tizimning ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarish, jumladan, axborot texnologiyalari va Operator hamda Emitent o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha Operatorga yuklatilgan Tizimdagi Elektron pullar bilan amaliyotlarni amalga oshirish uchun Tizim Ishtirokchilarini operativ ta'minlash;

## 6.2. Operator quyidagi huquqlarga ega:

- 6.2.1. Agentdan shartnoma majburiyatlarini bajarishini talab qilish;
- 6.2.2. Agent tomonidan Elektron pullarni quyidagi hollarda ishlatish amaliyotlarini sodir etishni taqiqlash:
  - a. agentdan blokirovkalash zarurligi to'g'risida xabar olish;
  - b. agent tomonidan mazkur Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarmaslik;
  - c. agentning Elektron pullarni ishlatish bilan bog'liq amaliyotlarni Elektron pullardan foydalanish talablari va shartlarini buzgan holda amalga oshirishi;
  - d. agentning Elektron pullarini vakolatli organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan asosda taqiqlab qo'yish;
  - e. agar O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida» gi Qonunida nazarda tutilgan holatlarida;
- 6.2.2. Agentdan mukofot olish;
- 6.2.3. Agentni Tizimda ro'yxatdan o'tishini rad etish, shuningdek, tizimda ro'yxatdan o'tish paytida Agent tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlar va tizim Operatoriga taqdim etilgan boshqa hujjatlar (shu jumladan sayt va Agentning biznesiga nisbatan) ishonchsizligi aniqlangan taqdirda Agentning elektron hamyonini taqiqlash;
- 6.2.4. Agentdan mazkur Shartnoma, tizim Qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bo'yicha majburiyatlarini bajarishda zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rab olish;
- 6.2.5. Agent tomonidan tizim Qoidalari va mazkur Shartnoma shartlariga rioya qilmagan hollar aniqlangan taqdirda uning tizimda ishlashini to'xtatib qo'yish;
- 6.2.6. Uchinchi shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Elektron pullarni yopib qo'yish to'g'risida murojaat tushgan taqdirda Agentning Elektron hamyonidan akseptsiz, nizosiz tarzda (Agentning qo'shimcha buyrug'i/ko'rsatmasisiz) Elektron pullarini olib qo'yish.

Mazkur Shartnomani tuzar ekan Agent Operator Bank Emitentiga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq o'zining Elektron hamyonidan Elektron pullarining akseptsiz olib qo'yilishiga rozilik beradi;

6. 2. 7. Tizim Operatori mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun o'zining qisman huquq va vakolatlarini uchinchi shaxslarga topshirish huquqiga ega. Operator tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha o'zining qisman huquq va vakolatlarini uchinchi shaxslarga topshirishi uni shartnoma bo'yicha ishlash majburiyatidan ozod qilmaydi va mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlar buzilganligi uchun javobgarlikdan soqit qilmaydi;

### 6. 3. Agent quyidagilarga majbur:

6. 3. 1. Mazkur Shartnoma, tizim Qoidalari, Tariflarda bayon etilgan talablar bilan tanishish va ularni bajarish;
6. 3. 2. Tizim Operatoriga «A-Pay» tizimida ro'yxatdan o'tish va mazkur tizim Agenti sifatida faoliyatni amalga oshirishda ishonchli ma'lumotni taqdim etish. Tizim Operatori Agent tomonidan taqdim etilgan ishonchsiz ma'lumot oqibatida kelib chiqqan zarar uchun javobgar hisoblanmaydi;
6. 3. 3. Tizim Operatoriga Agentni identifikatsiyalashi uchun axborotni taqdim etish;
6. 3. 4. Tizim Operatoriga Agentning dasturiy ta'minotga kirishning to'liq ro'yxat nuqtasini ularning joylashgan hududi va vaqti, ishlashi ko'rsatilgan holda taqdim etish;
6. 3. 5. Agentning dasturiy ta'minotga Mijozlar kirishi uchun uskuna vositalarining kirish nuqtasini ichki jadvalga muvofiq ishlashining vaqti va joyini ko'rsatgan holda uzluksiz ishlashini ta'minlash;
6. 3. 6. Tizim Operatorining ruxsatisiz bevosita yoki uchinchi shaxslar orqali taqdim etilgan dasturiy ta'minotga mazkur harakatlarni amalga oshirish maqsadida o'zgarishlar kiritmaslik;
6. 3. 7. Elektron pullarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va tizim Qoidalariga muvofiq ega bo'lish va sotishni amalga oshirish;
6. 3. 8. Elektron hamyondagi elektron pullarning balansini kuzatib borish, Agentga tegishli bo'lgan hamyonni o'z vaqtida to'ldirib borish. Hamyonni to'ldirishda jiddiy kechikishlarga yo'l qo'ymaslik (bir bank kunidan ortiq);
6. 3. 9. Mazkur Shartnomaning talablariga muvofiq bank hisob raqamining mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;
6. 3. 10. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, POS-terminallar, Tizimga kirishning boshqa usullari orqali Agentning DTga ommaviy kirish imkoniyatini yaratish;
6. 3. 11. Mijozga elektron pulni sotish va elektron pulni ro'yxatdan o'tgan Mijozning hamyoniga o'tkazish holatini tasdiqlovchi va/yoki Merchant foydasiga O'zbekiston Respublkasi qonunchiligida nazarda tutilgan barcha zarur rekvizitlardan iborat to'lovni amalga oshirgan holda sotuv chekini (qog'oz yoki elektron shakldagi) shakllantirishda ishtirok etish:
1. Agent, emitent, operatorning nomlanishi;
  2. amaliyotni amalga oshirish sanasi (kun, oy, yil) va vaqti (soat, daqiqa, soniya);
  3. amaliyotning tartib raqami;
  4. Amalga oshirilgan yoki sanab o'tilgan Elektron pullarning miqdori;
  5. Elektron pul egasiga tegishli bo'lgan Elektron hamyonning identifikatsion kodi;
  6. Komission haq to'lash miqdori (agar Tariflarda nazarda tutilgan bo'lsa);
6. 3. 12. Savdo chekini berish iloji bo'lmagan hollarda – Mijozni mazkur holat haqida oldindan ogohlantirish va unga majburiy tartibda Tizimda kelgusida to'lovni identifikatsiyalashi uchun shaxsiy raqam taqdim etish;



6. 3. 13. Mijozga unga Mijoz hamyonini to'ldirish jarayonida Elektron pullarni amalga oshiradigan Emitent banki haqida ma'lumotni taqdim etish;
6. 3. 14. Jismoniy shaxslar – Elektron pullarning egalaridan Elektron pullarni tizimda Elektron hamyonga ega jismoniy shaxslarning Elektron pullarini amalga oshirish yoki yopish maqsadida nominal qiymati bo'yicha pullarini sotib olish;
6. 3. 15. Unga mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishda ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotni fosh etmaslik;
6. 3. 16. O'zining autentifikatsion ma'lumotlarining xavfsizligini mustaqil ravishda ta'minlash va bunday ma'lumotlardan foydalangan holda Tizimda Agent nomidan faoliyat olib borishga vakolatli hisoblanmagan shaxslarning hamyonlariga kirishini cheklash;
6. 3. 17. Uchinchi shaxslarga o'zining tizimga kiruvchi rekvizitlarini bermaslik;
6. 3. 18. Soliq organlari oldida mustaqil ravishda hisobot berish;
6. 3. 19. Tizim Mijozlari – jismoniy shaxslardan qabul qilingan naqd pullarning inkassatsiyasini mustaqil ravishda tashkillashtirish;
6. 3. 20. Tizim operatori tomonidan taqdim etilgan, agar bunday taqdim bo'lgan holda, dasturiy ta'minotni mustaqil o'rnatishni amalga oshirish;
6. 3. 21. Mijoz – jismoniy shaxsni agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha talab qilingan hollarda identifikatsiyalash uchun qonunchilikda nazarda tutilgan barcha harakatlarni amalga oshirish;
6. 3. 22. Har qanday amaliyotlarni amalga oshirishda jismoniy shaxslarga «A-Pay» tizimi doirasida ko'rsatiladigan xizmatlarning taqdim etish shartlari bilan tanishish va bunday jismoniy shaxsdan dolzarb tahriri saytida e'lon qilinadigan va jismoniy shaxsga elektron shaklda etkaziladigan standart mijozlar kelishuvi bilan tanishganligining tasdig'ini olish imkonini berish;
6. 3. 23. Tizim operatori, bank Emitenti tomonidan tizim Operatori va Bankning Internet tarmog'idagi rasmiy sayti chop qilinayotgan xabarlarni kuzatib borish.
6. 3. 24. Tizimdan boshqa Ishtirokchilar, uchinchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi me'yorlarini buzmagani va ta'sir etmagan holda foydalanish.
6. 3. 25. Tizim Operatori, shuningdek, Tizimdan foydalanish maqsadida Emitent tomonidan unga berilgan maxfiy ma'lumotlarni bermaslik;
6. 3. 26. Tizimga kirish moslamasining ishga layoqatligi va axborot himoyalash to'g'risida mustaqil ravishda qayg'urish;
6. 3. 27. Tizimning dasturiy ta'minotiga mustaqil ravishda yoki uchinchi shaxslarni jalb etgan holda to'liq yoki qisman o'zgartirishga harakat qilmaslik va kiritmaslik;
6. 3. 28. Agent nomidan tizimga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxsning ma'lumotlari o'zgargan taqdirda autentifikatsiya ma'lumotlariga o'z vaqtida o'zgarishlarni kiritish, «A-Pay» tizimi Operatorini bunday shaxs to'g'risidagi o'zgarish to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish;
6. 3. 29. Tizimga kirish uchun Agentning rekvizitlaridan uchinchi shaxslarning qonuniy foydalanishlari va egalik qilishlarini istisno etuvchi zarur tashkiliy-texnik tadbirlarni (shu jumladan, zararli dasturlar ta'siridan himoyalash uchun dasturiy ta'minotdan qonuniy tarzda foydalanish);
6. 3. 30. Tizimga kirish uchun Agentning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanishi bilan bog'liq unga ma'lum bo'lgan yoki shaxsiy shubhalangan holatlari to'g'risida Tizim Operatorini ogohlantirish;
6. 3. 31. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq komission to'lovlarni, shuningdek, boshqa to'lovlarni to'lash;



- 6.3.32. Agentning Elektron hamyoni/bank hisob raqamiga noto'g'ri tushgan pullar, shuningdek, Elektron hamyonni yo'qotish, o'g'irlash va ruxsatsiz ishlatish bilan bog'liq faktlar aniqlangan taqdirda bu haqda Bank va tizim Operatorini har qanday mumkin bo'lgan usullar bilan xabardor qilish. Agentning Bank hisobiga adashib o'tkazilgan puli, noto'g'ri hisoblangan pul aniqlangan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Bankka qaytarilishi kerak;
- 6.3.33. Operatordan Agentning Elektron hamyoniga noto'g'ri hisoblangan elektron pullar tushganligi to'g'risida bildirishnoma kelib tushgan taqdirda Operatorga/Bankka yozma shaklda yoki elektron xabar orqali noto'g'ri summa olinganini tasdiqlash va Elektron hamyonidan mazkur xato mablag'ni aksepsiz olib qo'yilishiga roziligini bildirish;
- 6.3.34. «A-Pay» tizimi orqali noqonuniy moliyaviy amaliyotlar, noqonuniy savdo, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bo'yicha amaliyotlar, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishini moliyalashtirish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzadigan boshqa amaliyotlarni amalga oshirmaslik;
- 6.3.35. Amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni va amaliyotlarning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni ularga ijro etilganidan so'ng 5 (besh) yildan kam bo'lmagan muddatga saqlash.

#### **6.4. Agent quyidagi huquqlarga ega:**

- 6.4.1. Tizim Operatoridan mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq barcha kerakli bo'lgan ma'lumotlarni so'rash;
- 6.4.2. Emitent tomonidan Elektron pullarning chiqarilishiga turtki berish;
- 6.4.3. «A-Pay» Tizimi Mijozlariga - jismoniy shaxslarga Elektron pullarni sotish;
- 6.4.4. «A-Pay» Tizimi Emitentlarida bittadan ortiq bank hisobiga ega bo'lish, turli xil «A-Pay» Tizimi Emitentlaridan Elektron pullarni sotib olish va sotish;
- 6.4.5. Pulni naqd va naqd bo'lmagan shaklda sotilgan Elektron pullar uchun to'lov sifatida qabul qilish;
- 6.4.6. Elektron pullarning sotilganligi to'g'risidagi barcha amaliyotlar, shuningdek, Mijozning Agentning dasturiy ta'minotdan foydalangan holda amalga oshirgan amaliyotlari haqida hisobotlarni olish;
- 6.4.7. Operatordan 5 (besh) yil muddatgacha amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risida hisobot so'rash va so'rov yuborilgan sanadan boshlab 10 (o'n) kun ichida ushbu hisobotni olish;
- 6.4.8. Shartnomaga, Tizim Qoidalariga, Tariflarga o'zgartirishlar kiritilganidan keyingi o'n kun ichida, Shartnomaning yangi tahriri, Tizim Qoidalari, Tariflari bilan rozi bo'lmagan hollarda, Tizim Operatoriga Shartnomani bekor qilish to'g'risida xabar yuborish. Agar Tizim Operatoriga bunday xabar yuborilmagan bo'lsa, bunday hollarda, barcha o'zgarishlar Agent tomonidan qabul qilingan hisoblanadi;
- 6.4.9. Tizim veb-saytida, Shaxsiy kabinet orqali shaxsiy ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish mumkin;
- 6.4.10. Tizim Operatoridan dasturiy ta'minot faoliyati bo'yicha maslahat xizmatlarini olish.

## 7. ELEKTRON PULLARNI ISHGA TUSHIRISH VA YOPISH

- 7.1. «A-Pay» tizimida Elektront pullarni chiqarish «A-Pay» tizimidagi Elektron pullarning Emitenti hisoblangan bank tomonidan tizim Operatori bilan tuzgan shartnomasi asosida amalga oshiriladi.
- 7.2. Agent o'z hisob raqamidagi mablag'ni Emitent Bankning Ixtisoslashtirilgan hisob raqamiga jo'natadi. Elektron pullarni chiqarish Emitent tomonidan Agentdan olingan pul mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.
- 7.3. «A-Pay» tizimi Emitentdan Emitentning Ixtisoslashtirilgan hisob raqami va Agentning rekvizitlari to'ldirilgan summa haqidagi ma'lumotni oladi.
- 7.4. «A-Pay» tizimi Emitent tomonidan chiqarilgan Elektron pullarni Agentning hamyoniga o'tkazilishini avtomatik tarzda amalga oshiradi.
- 7.5. Elektron pullarni chiqarish Agentdan Tariflarda bayon etilgan kommission mablag'ni olish orqali amalga oshiriladi.
- 7.6. Elektron pullarni yopish Agentning bank hisob raqamida Agent tomonidan taqdim etilgan ma'lumotga muvofiq bajariladi.
- 7.7. Agentning Elektron pullarini qaytarish Emitent Bank tomonidan Agentning so'rov jo'natganidan va tizim Operatori Emitent Reyestriga Elektron pullarni qaytarish to'g'risida tranzaksiya jo'natganidan so'ng amalga oshiriladi. Agentning Elektron pullarni qaytarish to'g'risida jo'natilgan Arizasi va Reyestr Emitent ish kunining 16.00 gacha taqdim etilgan taqdirda Emitent o'zining joriy ish kuni davomida Agentning hisob raqamiga Elektron pullarni qaytarish natijasida olingan pul mablag'i jo'natmasini (o'tkazmasini emas) bajaradi. Agentning Elektron pullarni qaytarish to'g'risida jo'natilgan Arizasi va Reyestr Emitent ish kunining 16.00 gacha taqdim etilgan taqdida Emitent o'zining joriy ish kuni davomida Agentning hisob raqamiga Elektron pullarni qaytarish natijasida olingan pul mablag'i jo'natmasini, har qanday holatda ham soat 12.00 gacha (o'tkazmasini emas) amalga oshiradi. Emitent Bankida ochilgan hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish Elektron pullarni qaytarish natijasida olingan pul mablag'lari hisob raqamiga jo'natilganidan so'ng 1 (bir) soat ichida o'tkaziladi. Pullarni qaytarish jarayonida pullarni Emitent bankidan tashqari boshqa moliyaviy tashkilotlarda ochilgan hisob raqamiga o'tkazish tartibi va muddati mazkur moliyaviy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi va Emitent/Operator bunday moliyaviy tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan pul mablag'larining muddati uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 7.8. Agentning Elektron pullarni qaytarish to'g'risidagi arizasi va tranzaksiya Reyestri texnik integratsiya shaklida axborot kanallari orqali jo'natiladi. Agent tomonidan qaytarib olish uchun taqdim etilgan amaliyotlar Reyestrini yuborishdan oldin Operator Agentning hamyonidagi mavjud Elektron pullarning miqdorini tekshiradi va Elektron pullarni rejalashtirilayotgan qaytarishga ishlatmaslik imkoniyatlarini ta'minlaydi.
- 7.9. Agent tomonidan mablag'larni qaytarish to'g'risida Emitent Bankka taqdim etiladigan arizasidagi umumiy miqdor Elektron hamyon balansidagi qoldiqdan oshib ketmasligi lozim.
- 7.10. Operator belgilangan Tariflarga muvofiq Agent tomonidan Elektron pullarni qaytarish kommission haqini undirish huquqiga ega.

## 8. TIZIM MIJOZLARI TOMONIDAN ELEKTRON PULLARNI SOTISH VA ISHLATISH

- 8.1. Agent Mijozlarga – jismoniy shaxslarga «A-Pay» Tizimining Elektron pullarini sotishni amalga oshiradi.
- 8.2. Olingan Elektron pullarni Mijoz o'zining elektron hamyoniga, boshqa ro'yxatdan o'tgan Mijozning – Identifikatsiyadan o'tgan yoki o'tmagan shaxsning hamyoniga jo'natishi yoki Tizim Merchantlarining xizmati to'lovlari uchun ishlatishi mumkin.

## 9. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

- 9.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarini buzganliklari uchun Shartnoma, Tizim Qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar hisoblanadi.
- 9.2. Agent mazkur Shartnoma, Tizim Qoidalari, Tariflarning shartlari bilan tanishmaganligi munosabati bilan ko'rgan har qanday zarari uchun Operator/Bank javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 9.3. Tizim Operatori/Emitent Bank Agent o'zi yoki uchinchi shaxslarning Agentning Tizimga kirish rekvizitlaridan foydalangan holdagi harakatlari yoki harakatsizliklari natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday oqibatlar uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
- 9.4. Tizim Operatori/Emitent Bank Agentning tizimga kirish bo'yicha rekvizitlaridan uchinchi shaxslar foydalangan holda Agentga yetkazilgan zarar uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 9.5. Tizim Operatori tizimning vaqtincha ishlamay qolishi, apparat yoki dasturiy ta'minotning ishlamay qolishi yoki uning aybisiz sodir bo'lgan xatolar uchun javobgar emas va Agentning mumkin bo'lgan zararlari va qo'ldan boy bergan foydalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 9.6. Tizim Operatori boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan aloqa yo'nalishlarining sifati va unga tegishli bo'lmagan boshqa uskunalar, jumladan, boshqa tashkilotlarga tegishli bo'lgan ma'lumotlar uzatishning tranzit tarmoqlarining ishga layoqatsizligi uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 9.7. Tizim Operatori Agentning «A-Pay» tizimga kirishni ta'minlaydigan apparat vositalari ishlashidagi nosozliklar uchun javobgar emas va buning hisobiga Agentning foydasiga yetkazilgan zarar va yo'qotishlar uchun javob bermaydi.
- 9.8. Tizim Operatori Agentning mazkur shartnoma shartlariga rioya qilmaganligi oqibatida yetkazilgan zararlari uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 9.9. Tizim Operatori Agent tomonidan ishonchli bo'lmagan ma'lumot taqdim etilgani yoki Agent tomonidan ma'lumotlarga o'z vaqtida o'zgartirish kiritish uchun ma'lumotlarni taqdim etmaganligi oqibatida uning foydasiga etkazilgan zarar uchun javob bermaydi.
- 9.10. Uchinchi shaxslarning «A-Pay» tizimining ishlashiga xalaqit berishga qaratilgan, Agentning autentifikatsiya ma'lumotlari bilan bog'liq bo'lmagan qonunga zid harakatlari bo'lgan taqdirda Tizim Operatori Agentning bunday harakatlar boshlangan paytdagi Hamyonidagi Elektron pullari miqdoridagi zarar uchun javobgar hisoblanadi.
- 9.11. Tizim Operatorining aybi bilan tizim ishida xatolar va nosozliklar yuzaga kelgan va bu ayb isbotlangan taqdirda tizim Operatori Agentning qayd etilgan nosozlik va xatolarning yuzaga kelish paytida Elektron hamyonida mavjud bo'lgan elektron pul miqdoridagi zarar uchun javobgar hisoblanadi.

9. 12. Tomonlardan biri Shartnoma shartlarini buzgan taqdirda boshqa Tomon buzilish holati aniqlangan paytdan boshlab 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay yozma ravishda buzilganlik holati, vaqti va joyi, shuningdek, Shartnoma shartining buzilish holatini isbotlovchi dalillar ko'rsatgan tartibdagi e'tirozni jo'natish majburiyatini oladi. E'tirozni olgan Tomon uni olgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni davomida e'tirozga nisbatan asoslangan javobni jo'natishi shart. Agar Tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda ular Toshkent shahrining iqtisodiy masalalar bo'yicha tumanlararo sudiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.
9. 13. Neustoyka (shartnomadagi biron-bir majburiyatni vaqtida bajarmaganlik uchun jarima), penya, jarimani to'lashga aybdor Tomonni Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini tegishli bajarishdan ozod etmaydi. Har qanday neustoyka va jarimali sanksiyalarni undirib olish Tomonlarning majburiyatiga kiritilmagan, neustoykani undirib olish huquqi ularning o'z xohishiga ko'ra amalga oshiriladi.
9. 14. Tizim Agent tomonidan taqdim etilgan ma'lumotning mazmuni uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Bunday mazmundagi ma'lumot uchun barcha javobgarlik, shuningdek, noto'g'ri/xato ma'lumot olinishi oqibatida Mijozlarga pul o'tkazmalarini o'z vaqtida o'tkazmaslik uchun Agent javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
9. 15. Mazkur Shartnoma bo'yicha Tizim Operatorida qarzdorlik holati yuzaga kelgan taqdirda Agent har bir kechikkan kun uchun 0,1% miqdorida penya hisoblash huquqiga ega, biroq bu muddati o'tgan to'lovning 10% idan oshmasligi lozim.
9. 16. Mazkur Shartnoma bo'yicha Agentda qarzdorlik holati yuzaga kelgan taqdirda Tizim Operatori har bir kechikkan kun uchun 0,1% miqdorida penya hisoblash huquqiga ega, biroq bu muddati o'tgan to'lovning 10%idan oshmasligi lozim.
9. 17. Dasturiy ta'minotda texnik xatolar aniqlangan taqdirda uning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan Tomonlar bunday nosozliklarni bartaraf etishning barcha chora-tadbirlarini zudlik bilan ko'rish majburiyatini oladi. Agar xatolarni 2 (ikki) hafta davomida bartaraf etish imkoni bo'lmagan taqdirda boshqa Tomon 2 (ikki) hafta o'tganidan keyin xatolarni bartaraf etish bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot berilishini talab qilish huquqiga ega.
9. 18. Mazkur Shartnomaning 9.17 -bandida qayd etilgan holatlar aniqlagan Tomon boshqa Tomonni aniqlangan paytdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat davomida xabardor etish majburiyatini oladi.
9. 19. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan holatlarda bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagani taqdirida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.
9. 20. Tizim Operatori o'z xizmatlarini reklama qilishda Agent tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni reklama qilish va ushbu Shartnomada qayd etilgan xizmatlarni, savdo belgilarini, xizmat ko'rsatish belgilarini, tovarning nomlanishini, tasvirini, Agentning logotipini bepul taqdim etish huquqiga ega. Agent bunday savdo belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovarning nomlanishi, tasviri, logotiplarini qo'llash uchinchi shaxslarning qonun bo'yicha belgilangan va himoyalangan huquqlarini buzmasligini kafolatlaydi.
9. 21. Agar Tizim Operatoriga Agent tomonidan taqdim etilgan tasvirlar, logotiplar, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va savdo nomlarini noto'g'ri ishlatishiga nisbatan da'volar va/yoki sud da'volari kelib tushsa, u holda Agent nizoni hal qilishda ishtirok etish, bunday e'tirozlarni o'z hisobidan hal qilish, jumladan, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, logotiplar, savdo nomlari, tasvirlarni o'z mablag'i hisobidan noto'g'ri ishlatishi natijasida uchinchi shaxslarga, shuningdek, jabrlangan tomonga etkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi.

- 9.22. Agar Agent tomonidan Tizim Operatori/Emitent bankning majburiyatlarini bajarmasliklari yoki lozim darajada bajarmaganligiga olib kelgan mazkur Shartnomaning shartlarini buzgan taqdirda Tizim Operatori/Emitent Bank mazkur Shartnomaning qaysidir shartlarini bajarmaganligi uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 9.23. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan holatlarda bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagani taqdirida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

## 10. FORS-MAJOR HOLATLARI

- 10.1. Agar Tomonlardan qaysidir biri Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini u yengib o'ta olmaydigan vaziyat va (yoki) Shartnoma tuzilguniga qadar noma'lum bo'lgan yoki bartaraf etib bo'lmaydigan, jumladan, suv toshqini, yong'in, sel kelishi, zilzila, urush, harbiy harakatlar, qamallar, eksport va importni taqiqlash, epidemiologik vaziyat kabi favqulodda holatlar yuzaga kelishi tufayli mazkur Shartnomada ko'rsatilgan to'liq yoki qisman bajarish layoqatiga ega bo'lmagan taqdirida mazkur Shartnomada ko'rsatilgan muddatlar bunday fors-majorli vaziyatlar amal qilish muddatiga qadar uzaytirilishi lozim. Agar bunday vaziyatlar yoki ularning oqibatlari 90 (to'qson) kundan oshsa, Tomonlardan istalgan biri Shartnomani bajarishdan bosh tortish huquqiga ega bo'ladi.
- 10.2. O'z majburiyatlarini bajarishga layoqatsiz Tomon boshqa Tomonni bunday fors-majorli holat paydo bo'lgani haqida zudlik bilan ogohlantirishi lozim. Fors-majorli vaziyatning mavjudligini tasdiqlash uchun tegishli davlat idorasi tomonidan imzolab berilgan ma'lumotnoma talab qilinadi. Mazkur ma'lumotnoma bunday fors-majorli vaziyat yuzaga kelganidan so'ng 10 (o'n) kun davomida boshqa Tomonga taqdim etilishi lozim.
- 10.3. Agar Tomonlardan biriga nisbatan bunday vaziyat 90 (to'qson) kalendar kunidan ortiq davom etgan taqdirda boshqa Tomon mazkur Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega bo'ladi, bunda u ikkinchi Tomonni bekor qilgunga qadar 10 (o'ng) kalendar kunidan kechiktirmasdan albatta ogohlantirishi lozim bo'ladi. Mazkur bandga muvofiq Shartnomani bekor qilish shartnoma bekor qilinguniga qadar mavjud bo'lgan o'zaro majburiyatlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi.

## 11. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 11.1. Mazkur Shartnomada yuzaga kelgan barcha bahsli masalalar muzokaralar va yozma da'vo yuborish yo'li bilan hal qilinadi. Da'vo qabul qilgan tomon, qabul qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida javob yuborishga majbur. Agar da'vo Tomonlarning rekvizitlari bo'yicha jo'natilgan bo'lsa, agar u shaxsan topshirilgan, telefaks orqali jo'natilgan, buyurtma xat yoki kuryerlik xizmati orqali jo'natilgan bo'lsa, da'vo tegishli tarzda topshirilgan hisoblanadi.
- 11.2. Agar muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishilmasa, mazkur Shartnoma bilan bog'liq yoki uning buzilishi, bekor qilinishi, haqiqiy emasligi sababli yuzaga kelgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar Toshkent shahrining iqtisodiyot bo'yicha tumanlararo sudida hal qilinadi (shartnomaviy sudgacha bo'lgan jarayon).

## 12. MAXFIYLIK VA XAVFSIZLIK

- 12.1. Tomonlar tijorat va bank siri hisoblangan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashlari shart.
- 12.2. Tomonlar har bir Tomon uchun maxfiy bo'lgan mazkur Shartnomani amalga oshirishi jarayonida olingan ma'lumotlarni oshkor qilmaslikni o'z zimmalariga oladilar. Mazkur Shartnomada maxfiylik deganda fosh qilinishi Tomonlardan birining zarar ko'rishiga va/yoki ishbilarmonlik nufuziga ta'sir ko'rsatishga olib kelishi mumkin bo'lgan, hamma o'rganilishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlar tushuniladi.
- 12.3. Agent maxfiylikni saqlash va Tizimga kirish ma'lumotlarini tarqatmaslik uchun javobgardir.
- 12.4. Agent mustaqil ravishda o'zining autentifikatsiya ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish va uning mumkin bo'lgan loqaydligi oqibatida Agentning ma'lumotlaridan foydalangan holda «A-Pay» tizimi resurlariga ruxsatsiz kirish, uchinchi shaxslar tomonidan jinoiy tajovuzlar, zararli dasturiy harakatlar yoki ko'zda tutilmagan harakatlarning oldini olish majburiyatini zimmasiga oladi.
- 12.5. Agent uning tomonidan autentifikatsiya ma'lumotlarini yo'qotishi natijasida tizimdan uchinchi shaxslarning foydalanish xavfi to'g'risida tizim Operatorini zudlik bilan ogohlantirishi shart.
- 12.6. Tomonlar mazkur Shartnoma shartlari, shuningdek, uni ijro etish vaqtida «A-Pay» tizimining texnik tavsifigacha bo'lgan olingan ma'lumot maxfiy ma'lumot hisoblanishini va u amal qilayotgan davrda hamda u bekor qilinganidan so'ng 12 (o'n ikki) oy davomida fosh qilinmasligini e'tirof etishadi. Tomonlar Agent va tizim Operatorining hamkorligi holati maxfiy ma'lumot hisoblanmasligini va Tomonlar undan reklama maqsadlarida foydalanishlari mumkinligini e'tirof etishadi.
- 12.7. Tomonlar har qanday uchinchi Tomonning O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari tijorat va bank sirini fosh etmaslik bo'yicha zarur choralarini ko'rishga majburdir. Olingan ma'lumot bilan faqat Tomonlarning xodimi bo'lgan shaxslar va mazkur shartnomaning ijrosi bilan bevosita bog'liq bo'linmalar tanishadilar.
- 12.8. Agent tizim Operatoriga tizimning ishlashini ta'minlash, Agentning topshiriqlarini bajarish, qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish va boshqa zarur hollarda Agentning har qanday rekvizitlarini, Agentning tizimdagi amaliyotlari haqidagi ma'lumotlarni Emitent bankiga berish imkoniyatini taqdim etadi.
- 12.9. Shartnomaning 12- bandi uning amal qilish muddati tugaganidan so'ng, 5 yil davomida amal qiladi.

## 13. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 13.1. Mazkur Shartnoma ushbu Oferta Aksepti vaqtidan kuchga kiradi va 12 (o'n ikki) oy davomida amal qiladi.
- 13.2. Tomonlarning hech biri boshqa Tomonga Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan 30 kun avval, uni bekor qilish to'g'risida yozma xabar yubormagan bo'lsa, Shartnoma noma'lum muddatga uzaytirilgan hisoblanadi.
- 13.3. Ushbu Ofertaning Agent tomonidan aksepti deganda Agentning mazkur Shartnomalar, Tizim Qoidalari, Tariflarning shartlarini to'liq va so'zsiz, hech qanday istisnolarsiz va cheklolgarsiz qabul qilishini anglatadi va bu ikki tomonlama yozma Shartnoma tuzish bilan tengdir.



13. 4. Agent Tizim Operatorining istalgan vaqtda mazkur Shartnomaga, Tariflarga va «A-Pay» Tizimi Qoidalariga bir tomonlama tartibda o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalariga kiritilgan qayd etilgan o'zgarish va qo'shimchalar yangi tahrirdagi Shartnoma, Tizim Qoidalari, Tariflar, qayd etilgan o'zgarishlar agar ular Tizim Operatorining saytida joylashtirilishida undan ko'proq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, chop etilganidan 15 (o'n besh) kalendar kunidan o'tib kuchga kiradi. Shartnoma, Tariflar, Tizimning Qoidalarining dolzarb tahriri bilan tanishish majburiyati Agentga yuklatilgan. O'zgarishlar kuchga kirgandan so'ng «A-Pay» tizimidan foydalanish deganda Tomonlar bu o'zgarishlarni so'zsiz qabul qilishi tushuniladi.
13. 5. Agar Agent «A-Pay» Tizimining ishtirokchisi bo'lishni to'xtatsa, bunday hollarda mazkur shartnoma avtomatik ravishda bekor qilinadi.
13. 6. Agar Shartnomaning bir yoki bir necha qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga o'zgartirish kiritilishi munosabati bilan haqiqiy emas deb hisoblansa yoki shunga aylansa, u holda Shartnomaning boshqa qoidalarining amal qilinishini to'xtatish uchun asos bo'lib hisoblanmaydi.
13. 7. Tomonlarning kelishuviga binoan Shartnoma muddatidan avval bekor qilinishi mumkin.
13. 8. Tomonlardan birining Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishi boshqa Tomonning mazkur Shartnoma shartlarini bir necha marta jiddiy buzilishi (ikki yoki undan ortiq) holatlarida, bekor qilinish sanasidan kamida 15 (o'n besh) kalendar kun oldin boshqa tomonning manziliga yozma shakldagi ogohlantirishni jo'natgan holda amalga oshiriladi.
13. 9. Tomonlardan birining tashabbusi bilan Shartnomaning muddatidan oldin bekor qilinishi, bunday bekor qilish sabablaridan qat'i nazar, boshqa Tomonga bunday bekor qilish sanasidan 30 (o'ttiz) kun oldin ogohlantirish yuborish orqali ijro etiladi.
13. 10. Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalariga o'zgartirish kiritilgan va yangi tahrirdagi Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalarining ayrim shartlari bilan kelishuvga erishilmagan taqdirda Tomonlar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda Shartnomani bekor qilish huquqiga egadirlar.
13. 11. Shartnomaning asoslarning hech birisiz bekor qilinishi Tomonlarning Shartnoma bekor qilinguniga qadar bajarilmagan bir-birlari yoki Tizimning boshqa ishtirokchilari oldidagi moliyaviy majburiyatlarining, shu jumladan, o'zaro to'lovlar, neustoykalar va zararni qoplash miqdorining bekor qilinishiga olib kelmaydi.
13. 12. Agar mazkur Shartnomaning amal qilish muddati tugashi vaqtida Tomonlar o'rtasida yakunlanmagan hisob-kitoblar, yoki Tomonlarning boshqa bajarilmagan majburiyatlari mavjud bo'ladigan bo'lsa, u holda Shartnoma bunday bajarilmagan majburiyatlar lozim darajada ijro etilguniga qadar amal qiladi.
13. 13. O'zgartirishlar kiritilganligi bilan tanishish uchun berilgan muddat ichida ayrim bandler bilan qo'shilmaslik holatlari mavjudligida Agent Tizim Operatoriga u va Tizim Operatori o'rtasida jismoniy shaxslarga Elektron pullarni realizatsiya qilish (tarqatish) maqsadida to'lov xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida tuzilgan Shartnomani bekor qilish bo'yicha ogohlantirish jo'natish huquqiga ega. Shartnoma uning yangi tahriri kuchga kirgan sanadan boshlab xabardor qilinganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.
13. 14. Agent yangi tahrirdagi Shartnoma kuchga kirgan sanadan keyin Tizimdan foydalanishning har qanday shakli, jumladan, Tizim hamkorlarining infratuzilmalari vositasida foydalanish Shartnoma, Tariflar, Tizim Qoidalariga kiritilgan o'zgarishlarga so'zsiz rozilikni anglatishini tushunadi va qabul qiladi. Shartnomaning yangi qoidalari eski tahrirdagi qoidalariga nisbatan mutlaqo ustunlikka ega. Shartnomaga Qo'shimcha kelishuvlar tuzilmaydi.



## 14. BOSHQA SHARTLAR

14. 1. Agent shartnoma tuzish orqali Tizim Operatoriga ovozi qo'ng'iroqlarni amalga oshirish huquqini beradi, shuningdek, Tizim Operatoridan, shu bilan birga, Tizim Operatorining boshqa vakolatli shaxslaridan ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, Agent tomonidan Tizimda ro'yxatdan o'tish vaqtida qayd etilgan Shaxsiy kabinetiga reklama tarqatmalari, sms-xabarlar, Abonent raqami/elektron pochta xabarlarini olish huquqini qo'lga kiritadi. Agent shuningdek, Tizim Operatoriga Elektron puldan foydalangan holda to'lovni amalga oshirilganligini tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumotli so'rovlarni olish, Agentga Elektron pullarni ishlatgan holda To'lovning amalga oshirilganlik maqomi to'g'risidagi ma'lumotni jo'natish, Agentga boshqa ma'lumotlarni jo'natish uchun roziligini oladi.
14. 2. Tizim Ishtirokchilari dasturiy apparat majmui vositasida elektron shaklda to'ldirilgan, oddiy yozma shakldagi tegishli hujjatlarga yuridik jihatdan teng bo'lgan hujjatlarni tan oladi.
14. 3. Shartnomaning qandaydir qoidasi yoki sharti haqiqiy emas deb tan olingan taqdirda, mazkur vaziyat Shartnomaning qolgan shartlari va qoidalari hamda butun Shartnomani haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.
14. 4. Tomonlarning mazkur Shartnoma bo'yicha amalga oshiradigan har qanday harakatlarining sanasi va vaqti Toshkent vaqti bilan belgilanadi.
14. 5. Tomonlar 2 (ikki) bank ish kunida bir-birini bank rekvizitlarining o'zgarganligi haqida ogohlantirish majburiyatini oladi.
14. 6. Shartnomada ko'zda tutilmagan boshqa barcha holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladilar.

# TO'LOV TASHKILOTI «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MChJ. «A-Pay» ELEKTRON PULLAR TIZIMI OPERATORI.

100090, O'zbekiston Respublikasi,  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,  
A. Qahhor ko'chasi, 9-tor ko'cha, 1a-uy  
STIR: 306 344 019  
h/r: 2020 8000 4050 6594 4001  
«Trastbank» XAB OPERBga  
MFO: 00491,  
Bank STIRi: 201 055 090  
OKED: 58290  
Tel: (+99855) 500 11 10